IQRO JURNALI , IQRO JOURNAL, ИКРО ЖУРНАЛИ
ISSN:2181-4341| wordlyknowledge.uz/index.php/iqro
Volume 21 Issue 02 May 2026

OZIQ-OVQAT TOVARLARIGA QO‘LLANILADIGAN BOJXONA TO‘LOVLARIDAN IMTIYOZLAR HAMDA ULARNING TASHQI SAVDO AYLANMASI KO’RSATKICHLARI

Sarmanov Orifjon Adiljanovich
Bojxona instituti katta o’qituvchisi i.f.f.d. (PhD),
e-mail: sarmanovorifjon@gmail.com,
Sharipov Shahzodbek Oybek o’g’li
Bojxona Instituti kursanti,
e-mail: sharipovshahzod1013@gmail.com,
Doi: https://doi.org/10.5281/zenodo.20496904

Davlatning iqtisodiyotni tartibga solishdagi eng muhim moliyaviy vositalaridan biri bojxona to’lovlaridir. Bojxona to’lovlaridan imtiyoz – soliq to’lovchilarning ayrim toifalariga qonun hujjatlarida belgilangan tartibda soliq to’lashdan to’liq, qisman va vaqtincha ozod qilish shakli.

Mamlakatning demografik o’sishi, geografik joylashuvi va talabning doimiyligi nuqtayi nazaridan 1974-yildagi Jahon oziq-ovqat sammitida ilk bor tilga olingan oziq-ovqat xavfsizligi insonlarning istalgan paytda faol va sog‘lom turmush tarzi uchun zarur bo‘lgan elementlarga boy va xavfsiz ya’ni sifati, soni va xilma-xilligi bo‘yicha ovqatlanish imkoniyatiga ega bo‘lish demakdir. Shu boisdan, qayd etish lozimki, ayni globallashuv jarayonida mamlakatlarda aholini oziq-ovqat mahsulotlari bilan sifatli va sotib olish qobiliyati doirasida ta’minlash muhim masalaga aylandi. Oziq-ovqat xavfsizligini ta’minlashga qaratilgan chora-tadbirlar davlatning nafaqat agrar sohasidagi, balki siyosiy va iqtisodiy yo‘nalishdagi faoliyatlari bilan ham bevosita bog‘liqdir. Bojxona tizimining asosiy va ajralmas qismlaridan biri imtiyozlaridir. Soliq va bojxona tizimida imtiyozlardan foydalanishning bir qator obyektiv ijtimoiy-iqtisodiy sabablari mavjud , davlat iqtisodiyotga ta’sir etib uni tartiblash vazifasini amalga oshiradiki, bunda turli xil dastaklardan foydalanadi. Bu dastaklarning asosiylaridan biri bu jamiyatdagi ba’zi muhim sohalarni yoki soliq to’lovchilarning faoliyatini rag’batlantirish maqsadida bojxonada imtiyozlar belgilanadi. Ya’ni, davlat bojxona imtiyozlari orqali iqtisodiyotni samarali va qulay boshqarish yoki tartiblash imkoniyatiga ega bo’ladi, bundan ko’rinadiki, bojxona imtiyozlari davlatni o’z funktsiya va vazifalarini yuzaga chiqaruvchi muhim dastak sifatida yuzaga chiqadi. Ta’kidlash kerakki, iqtisodiyotning yetakchi tarmoqlarida tarkibiy o’zgarishlarni amalga oshirish va bu sohalarni diversifikatsiya qilishda soliq va bojxona imtiyozlari ijobiy ta’sir ko’rsatadi. Prezidentimiz Sh.M.Mirziyoyev ta’kidlaganidek soliq va bojxona tizimi nafaqat davlat byudjetini to’ldirish, balki birinchi galda, rag’batlantirish xususiyatiga ega bo’lishi lozim. Shu boisdan aholining xarid qobiliyatini mustahkamlash, asosiy turdagi oziq-ovqat va iste’mol mahsulotlariga bo‘lgan ehtiyojni ta’minlash, tovarlar ta’minotining global zanjirlarini diversifikatsiyalash hamda inflyatsiya darajasini jilovlash maqsadida O’zbekiston Respublikasi Prezidenti 2023-yil 23-mart kuni “Iste’mol bozorlarida narxlar barqarorligini ta’minlashga doir qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida” 41-son Farmoni chiqqan bo’lib, ushbu Farmonga 1-ilova qilib 36 ta TIF TN koddagi 2026-yil 1-yanvarga qadar tovarlarni olib kirishda bojxona bojining nol stavkasi belgilanadigan tovarlar keltirilgan bo’lib, ulardan 32 tasi oziq-ovqat mahsulotlari hisoblanadi.(1-jadvalga qarang)

1-jadval. (yulduzcha bilan keltirilgan tovarlarga nisbatan bojxona bojining nol stavkalari 2023-yil 1-sentabrga qadar qo‘llaniladi)

T/r	TIF TN kodi	Tovarning nomlanishi
1.	0203, 0208,	Yangi so‘yilgan, sovutilgan yoki muzlatilgan cho‘chqa go‘shti;

	0209	boshqa go‘sht va go‘shtli oziq-ovqat submahsulotlari; tuzli eritmada tuzlangan, quritilgan yoki dudlangan, eritib yoki boshqa usul bilan ajratib olinmagan cho‘chqa yog‘i, go‘shtdan ajratib olingan yog‘ va uy parrandasi yog‘i
2.	0403	Yogurt; paxta, ivigan sut yoki qaymoq, qatiq va boshqa fermentlangan yoki achitilgan sut va qaymoq, quyultirilgan yoki quyultirilmagan, shakar yoki boshqa shirin ta’m beruvchi moddalar qo‘shilgan yoki qo‘shilmagan, xushbo‘y ta’mli qo‘shimchalar qo‘shilgan yoki qo‘shilmagan, kakao, yong‘oq, mevalar qo‘shilgan yoki qo‘shilmagan
3.	0406	Pishloq va tvoroglar
4.	0408	Yangi, quritilgan, qaynatilgan yoki bug‘da pishirilgan, formalangan, muzlatilgan yoki boshqa usullar bilan konservatsiya qilingan, shakarli yoki shakarsiz, boshqa shirin ta’m beruvchi moddalarsiz qobiqsiz tuxum va tuxumning sarig‘i
5.	0703*	Sholg‘omsimon dumaloq piyoz, shalot piyozi, sarimsoqpiyoz, piyoz-porey va boshqa piyozli sabzavotlar, yangi yoki sovitilgan
6.	0705*	Salat latuk (Lactuca sativa) va sikoriy (Cichorium spp.), yangi yoki sovitilgan
7.	0713	Dukkakli sabzavotlar, quritilgan, tozalangan, urug‘langan yoki tozalanmagan, bo‘lingan yoki bo‘linmagan
8.	0804	Yangi yoki quritilgan xurmo (finik), anjir, ananas, avokado, guava, mango va mangostin yoki garsiniya
9.	0808	Yangi olma, nok va behi
10.	0810	Boshqa yangi mevalar
11.	1102	Bug‘doy yoki javdardan tashqari g‘alla donidan un
12.	1103	G‘alla don donalaridan yorma, yirik tortilgan un va granulalar
13.	1105	Nozik va dag‘al un, kukun, bo‘laklar, kartoshka granulalari
14.	1106	0713 tovar pozitsiyadagi quritilgan dukkakli sabzavotlarning yirik va mayda tortilgan un va kukunlari, 08 guruhdagi mahsulotlari yoki 0714 tovar pozitsiyasidagi sago palmasining yuragi, ildizlari yoki ildiz mevalari
15.	1108	Kraxmal; inulin
16.	1513	Kokos (kopra), palma yadrosi yoki babassu moylari va ularning fraksiyalari, rafinadlangan yoki rafinadlanmagan, lekin kimyoviy tarkibi o‘zgartirilmagan:
17.	1602	Tayyor yoki konservalangan go‘sht mahsulotlari, yarim tayyor go‘sht, qon yoki hasharotlar mahsulotlari
18.	1604	Tayyor yoki konservalangan baliq; baliq tuxumidan tayyorlangan osyotr

		ikrasi va uning o‘rnini bosuvchi moddalar
19.	1703	Shakarni olish yoki tozalash natijasida hosil bo‘lgan shinni
20.	1704	Tarkibida kakao bo‘lmagan qandolat mahsulotlari (shu jumladan, oq shokolad).
21.	1806	Kakao tarkibli shokolad va boshqa tayyor oziq-ovqat mahsulotlari
22.	1902	Issiqlik ishlovi berilgan yoki berilmagan, ichi to‘ldirilgan (go‘sht va boshqa mahsulotlar bilan) yoki to‘ldirilmagan hamda boshqa usulda tayyorlangan yoki tayyorlanmagan, spagetti, makaronlar, ugra (lapsha), lazanya, kletski, ravioli, kannelloni kabi makaron mahsulotlari; kuskus, tayyorlangan yoki tayyorlanmagan
23.	1905	Tarkibida kakao bo‘lgan yoki bo‘lmagan non, xamirli qandolat mahsulotlari, pirojniylar, pechenye va boshqa non-bulochka hamda xamirli qandolat mahsulotlari; vaflilar, farmatsevtikada kerak bo‘ladigan bo‘sh kapsulalar, yopishtirish uchun vaflili kapsulalar, guruchli qog‘oz va shunga o‘xshash mahsulotlar
26.	2007	Issiqlik bilan ishlov berish yo‘li bilan olingan, shu jumladan, shakar yoki boshqa shirin ta’m beruvchi moddalar qo‘shilgan murabbolar, mevali jele, marmeladlar, meva yoki yong‘oq pyuresi, meva yoki yong‘oq pastalari
27.	2008	Boshqa usulda tayyorlangan yoki konservalangan mevalar, yong‘oqlar va o‘simliklarning boshqa iste’mol qilinuvchi qismlari, tarkibida shakar yoki shirin ta’m beruvchi moddalar yoki spirt qo‘shimchalari mavjud bo‘lgan yoki mavjud bo‘lmagan, boshqa joyda nomi ko‘rsatilmagan yoki kiritilmagan
28.	2101	Qahva, choy yoki paragvay choyi yoki mate, aragvay choyining ekstraktlari, essensiya va konsentratlari hamda qahva, choy yoki mate yoki paragvay choyi asosidagi tayyor mahsulotlar; qovurilgan sikoriy va boshqa qovurilgan qahva o‘rnini bosuvchi moddalar va ulardan ekstraktlari, essensiyalari va konsentratlari
29.	2103	Souslar tayyorlash uchun mahsulotlar va tayyor souslar; ta’mli qo‘shimchalar va aralash ziravorlar; xantal kukuni va tayyor xantal
30.	2104	Tayyor sho‘rvalar va bulonlar va ularni tayyorlash uchun “yarim tayyor mahsulotlar”; gomogenlashtirilgan tarkibli tayyor oziq-ovqat mahsulotlari
31.	2201	Suvlar, shu jumladan, tabiiy yoki sun’iy mineral, gazlangan, shirin ta’m beruvchi moddalar yoki xushbo‘y ta’mli qo‘shimchalar qo‘shilmagan
32.	2202	Suvlar, shu jumladan, mineral va gazlangan, shirin ta’m beruvchi moddalar yoki xushbo‘y ta’mli qo‘shimchalar qo‘shilgan, boshqa alkogolsiz ichimliklar
33.	3305	Soch uchun vositalar
34.	3307	Soqol olishdan oldin, soqol olishda va soqol olgandan so‘ng ishlatiladigan vositalar, individual qo‘llash uchun dezodarantlar, vanna qabul qilish

		uchun birikmalar, tuklarni tushirish uchun vositalar va boshqa attorlik, kosmetik yoki boshqa pardoz vositalari, boshqa joyda nomlanmagan yoki kiritilmagan; xonalar uchun dezodorantlar, xushbo‘ylashtirilgan yoki xushbo‘y qilinmagan, dezinfeksiyalash xususiyatiga ega yoki ega emas
35.	6111, 6209	Bolalar kiyimi va bolalar kiyimlari uchun jihozlar
36.	6402999100, 6403511100, 6403519100, 6403593100, 6403599100, 6403911100, 6403919100, 6403993100, 6403999100	Patak uzunligi 24 sm dan kam bo‘lgan poyabzal

Bundan tashqari 2022-yil 31-mayda chiqarilgan O’zbekistan Respublikasi Prezidentining “Iste’mol bozorlarida narxlar barqarorligini ta’minlashga va monopoliyaga qarshi choralarning ta’sirchanligini oshirishga doir qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi 145-son Farmoni Respublika aholisining alohida turdagi oziq-ovqat mahsulotlariga bo‘lgan ehtiyojlarini kafolatli ta’minlash, ichki iste’mol bozoridagi ijtimoiy ahamiyatga ega tovarlar narxlari sun’iy va asossiz oshirilishining oldini olish, shuningdek, tarif va notarif tartibga solish vositalarini keng qo‘llash hisobiga ularning inflyatsiya darajasiga salbiy ta’sirini yumshatish maqsadida ishlab chiqilgan. Ushbu Farmon asosida 1-ilovada keltirilgan 23-ta TIF TN kodda keltirilgan oziq-ovqat tovarlarni olib kirishda bojxona bojlarining nol stavkalari belgilanadi hamda savdo-iqtisodiy munosabatlarda eng ko‘p qulaylik berish rejimi nazarda tutilmagan mamlakatlarda ishlab chiqarilgan tovarlarga nisbatan bojxona bojining ikki baravar stavkasi qo‘llanilmaydi.(2-jadvalga qarang)


2-Jadval. (Ilovadagi tovarlarning barchasi oziq-ovqat mahsulotlari hisoblanadi)

T/r	**TIF TN kodi**	**Tovarning nomlanishi**
1.	0206	Yangi, sovutilgan, muzlatilgan yirik shoxli qoramollar, qo‘ylar, echkilar, otlar, xachirlarning iste’mol qilinadigan submahsulotlari
2.	0301 — 0303	Baliq
3.	0304	Baliq filesi
4.	0305	Quritilgan, tuzlangan yoki dudlangan baliq
5.	0402	Shakar yoxud boshqa shirin ta’m beruvchi moddalar qo‘shilgan quyultirilgan sut va qaymoqlar;

6.	0405	Sariyog‘ va sutdan tayyorlangan boshqa moylar va yog‘lar; sut pastalari
7.	0407	Po‘choqli, yangi, konservalangan yoki qaynatilgan parranda tuxumlari
8.	0803	Bananlar, shu jumladan yangi yoki quritilgan plantaynlar
9.	0805 (0805 50 100 0 dan tashqari)	Yangi yoki quritilgan sitrus mevalari (limondan tashqari)
10.	0901	Qovurilgan yoki qovurilmagan, kofeinli yoki kofeinsiz qahva; kofe qobig‘i va qahva donalarining qobig‘i; har qanday nisbatdagi qahvani o‘z ichiga olgan qahva o‘rnini bosuvchilari
11.	0902 10 000 1, 0902 30 000 1	bir martalik qadoqdagi netto og‘irligi 3 kg dan oshmaydigan birlamchi qadoqlardagi choy
12.	0902 10 000 9, 0902 30 000 9	netto og‘irligi 3 kg dan oshmaydigan birlamchi qadoqdagi boshqa choy
13.	1507	Kimyoviy tarkibi o‘zgartirilmagan holda tozalangan yoki tozalanmagan soya yog‘i va uning fraksiyalari
14.	1508	Kimyoviy tarkibi o‘zgartirilmagan holda tozalangan yoki tozalanmagan yer yong‘oq yog‘i va uning fraksiyalari
15.	1511	Kimyoviy tarkibi o‘zgartirilmagan holda tozalangan yoki tozalanmagan palma yog‘i va uning fraksiyalari
16.	1514	Kimyoviy tarkibi o‘zgartirilmagan holda tozalangan yoki tozalanmagan raps (rapsdan yoki kolzadan) yoki xantal yog‘i va ularning fraksiyalari
17.	1516	To‘liq yoki qisman gidrogenezirlangan, qayta eterifitsiyalangan, reeterifiyalangan yoki elaidinizayiyalangan, tozalanmagan yoki tozalangan, lekin keyingi ishlov berilmaydigan hayvon va o‘simlik yog‘lari va moylari va uning fraksiyalari
18.	1517	Margarin; hayvon yoki o‘simlik yog‘i yoki moylardan yoxud ushbu guruhdagi turli xil moylar yoki yog‘larning fraksiyalaridan tayyorlangan iste’mol qilishga yaroqli bo‘lgan aralashmalar va tayyor mahsulotlar, 1516 tovar pozitsiyasidagi oziq moylari yoki yog‘lari yoxud ularning fraksiyalaridan tashqari
19.	1901	Solod ekstrakti; Tarkibida kakao bo‘lmagan yoki to‘liq yog‘sizlantirilgan asosda qayta hisoblanganda 40% dan kam kakao bo‘lgan boshqa joyda ko‘rsatilmagan yoki kiritilmagan mayin yoki yirik maydalangan un, yorma, kraxmal yoki solod ekstraktidan tayyorlangan tayyor ozuqa mahsulotlari; 0401 — 0404 tovar pozitsiyalaridagi xom ashyolardan, tarkibida kakao bo‘lmagan yoki to‘liq

		yog‘sizlantirish asosida qayta hisoblanganda 5% dan kam kakao bo‘lgan, boshqa joyda ko‘rsatilmagan yoki kiritilmagan tayyor oziq-ovqat mahsulotlari
20.	1903 00 000 0	Yormalar, granulalar, sharlar, donalar yoki shunga o‘xshash shakllarda kraxmaldan tayyorlangan tapioka va uning o‘rnini bosuvchilari
21.	1904	Yormalar donlari yoki donli mahsulotlarini (masalan, makkajo‘xori donalari) shishirish yoki qovurish orqali olingan tayyor oziqa mahsulotlari; yorma shaklidagi yoxud don yoki boshqa usulda tayyorlangan (mayin va yirik maydalangan un, yormadan tashqari), dastlabki tarzda qaynatilgan yoki boshqacha usulda tayyorlangan, boshqa joyda ko‘rsatilmagan yoki kiritilmagan yorma shaklidagi don (makkajo‘xori donalaridan tashqari)
22.	2102 10 310 0, 2102 10 390 0	Xamirturush
23.	1101 00	Bug‘doy uni yoki bug‘doy-javdar uni

Ayrim turdagi oziq-ovqat mahsulotlariga nisbatan qo’llanilgan imtiyozlar hamda yengillashtirishlar orqali oziq-ovqat mahsulotlari tashqi savdosiga sezilarli ta’sir ko’rstadi. Natijaviy ko’rsatkich sifatida o’tgan yilga nisbatan barqaror o’sish suratlariga erishilmoqda.(1-rasmga qarang)



1-Rasm. (Oziq-ovqat mahsulotlari 2025-yilgi importi va eksporti ko'rsatkichlari)

Milliy Statistika Qo'mitasining Stat.uz rasmiy saytidan olingan ma'lumotlardan ko'rishimiz mumkinki, O'zbekiston Respublikasida umumiy oziq-ovqat mahsulotlarining 2025 yildagi importi 2024-yildagiga qaraganda 35.1 % o'sish ko'rsatgan va 364.3 million AQSH dollari miqdorida import operatsiyalari amalga oshirilgan.2025-yildagi oziq-ovqat mahsulotlarining eksporti 154.2 million AQSH dollari miqdorida ko'rsatkich bilan oldingi yilga nisbatan 29.2 % o'sish ko'rsatgan.

Aholi eng yuqori talab mavjud import mahsulot bu shakar va konditor mahsulotlari hisoblanadi va uchbu mahsulot 2025-yilda 71.9 million AQSH dollari qiymatida importi amalga oshirilganligini ko'rishimiz mumkin.(1-jadvalga qarang)

4-Jadval (Shakar va konditor mahsulotlarining 2025-yil importi o'tgan yilga nisbatan 75.6 % o'sish ko'rsatgan).

Iste'mol tovarlar importi to'g'risida ma'lumot
(Shakar va konditer mahsulotlari)

2025

Tovar	O'lchov birligi	2024 yil		2025 yil	
		miqdori	qiymati (ming doll.)	miqdori	qiymati (ming doll.)
Jami	-	-	40 924,0	-	71 864,8
Shakar va shakar xomashyosi	kg	33 121 785,5	25 097,1	78 630 378,3	52 058,8
Shokolad	kg	2 776 954,1	9 232,2	3 310 999,0	11 874,0
Marmeladlar	kg	489 640,6	1 164,4	1 073 775,1	2 244,0
Karamelli shirinliklar	kg	700 654,1	1 439,4	762 237,0	1 652,3
Kakao parashoki	kg	556 512,7	1 622,9	327 992,6	1 270,1
Shakar o'rnini bosuvchi moddalar	kg	847 549,0	450,9	1 981 294,6	951,4
Boshqa shirinliklar	kg	1 383 145,3	732,4	893 867,4	789,9
Saqich	kg	65 673,0	441,9	106 166,0	630,7
Oq shokolad	kg	43 777,0	338,1	55 549,7	362,9
Xushbo'ylashtirilgan shakar	kg	4 327,5	5,3	10 115,0	30,8
Kakao pastasi	kg	1 600,0	9,3	0,0	0,0
Kakao xomashyosi	kg	8 160,0	39,4	0,0	0,0
Kakao yog'i	kg	51 825,0	330,4	0,0	0,0
Konfetlar	kg	0,0	0,0	0,0	0,0
Shinni	kg	96 000,0	20,2	0,0	0,0

Boshqacha aytganda oziq-ovqat mahsulotlariga nisbatan tarif imtiyozlari - bu qonunlarga muvofiq soliqqa tortish bazasiga ega bo'lgan yuridik yoki jismoniy shaxslarni to'liq yoki qisman

bojxona to'lovlari to'lashdan ozod qilish yoki boj to'lovchilar uchun bojxona to'lovlari yukini yengillashtirish demakdir.

Xulosa qilib shuni aytish mumkinki, oziq-ovqat xavfsizligini ta'minlash uchun birinchi navbatda asosiy hisoblangan ba'zi bir oziq-ovqat mahsulotlariga nisbatan belgilangan bojxona boji stavkalarini qaytadan ko'rib chiqish lozim, shuningdek imtiyozlarni bekor qilgan holda, ushbu stavkalarni optimallashtirish uchun xorijiy tajribani qo'llagan holda mavsumiy bojlarni va tarif kvotalarini joriy qilish oziq-ovqat xavfsizligini ta'minlashning samaradorligini oshirish hamda ichki bozorning talabini qondira olish imkoniyatlarini belgilaydi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 23-martdagi "Iste'mol bozorlarida narxlar barqarorligini ta'minlashga doir qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida" PF-41 Farmoni. https://lex.uz/uz/docs/-6412565
2. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 31-maydagi "Iste'mol bozorlarida narxlar barqarorligini ta'minlashga va monopoliyaga qarshi choralarning ta'sirchanligini oshirishga doir qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi PF-145 Farmoni. https://lex.uz/uz/docs/-6041630
3. O'zbekiston Respublikasi Milliy Statistika Qo'mitasi https://stat.uz/uz/default/choraklik-natijalar/53709-2024#yanvar-dekabr
4. O'zbekiston Respublikasi Iqtisodiyot va Moliya Vazirligi huzuridagi Bojxona Qo'mitasi rasmiy sayti https://www.customs.uz/oz/